“KELISHILDI” **O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi bosh kotibi** **_____A.Maksumov** **“10” iyun 2023-yil**	**“TASDIQLAYMAN”** **O‘zbekiston respublikasi yoshlar siyosati va sport vaziri o‘rinbosari** **_____Sh.Maxmudov** **“10” iyun 2023-yil**

Sportning futbol va futzal turlari bo‘yicha 2023-yilda o‘tkaziladigan O‘zbekiston chempionati, O‘zbekiston kubogi hamda Respublika turniri musobaqalarini o‘tkazish to‘g‘risidagi

N I Z O M I

Toshkent-2023

Sportning futbol va futzal turlari bo'yicha 2023-yilda o'tkaziladigan O'zbekiston chempionati, O'zbekiston kubogi musobaqalarini hamda Respublika ochiq turnirlarini o'tkazish to'g'risidagi

N I Z O M I

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF–5887–son "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni hamda futbol va futzal sport turi bo'yicha respublika sport musobaqalarining (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) maqsadi asosiy vazifalari, sport musobaqalari jarayonini tashkil etish boshqarish, o'tkazishga rahbarlik qilish, moliyalashtirish, shuningdek musobaqa g'olib va sovrindorlarini taqdirlash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Respublika musobaqalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda o'tkazilgan *(uch bosqich, mahalla (muassasa), tuman (shahar) va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar miqyosida o'tkazilgan viloyat saralash)* musobaqalarda g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar hamda saralash bosqichlaridan saralab olingan viloyat terma jamoalari ishtirok etadi. Bunda:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-5279-sonli** qaror talablariga muvofiq, O'zbekiston chempionatlari (kuboklari)ning final bosqichlarida faqat mazkur musobaqalarning quyi bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan va tegishli hujjatlarni Platformaga joylashtirgan jamoalar ishtirok etadi. **Ushbu talablarga rioya qilinmagan taqdirda jamoalar mazkur musobaqalarda ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi.**

1.2. Musobaqalarni o'tkazish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va Farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa Qonun hujjatlariga amal qilinadi.

2-bob. Musobaqaning maqsad va vazifalari

2.1. Musobaqaning maqsadi yurtimizda futbol sport turini yanada rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, iqtidorli futbolchilarni saralash va saralab olish (seleksiya) tizimini yanada rivojlantirish, yosh futbolchilarni sport mahoratini oshirish, professional futbolchilarni tayyorlash, ishonchli sport zaxirasini shakllantirish, shuningdek, ularni yoshlar, o'smirlar va milliy terma jamoalar tarkibiga jalb qilishdan iboratdir.

2.2. Musobaqalarning vazifasi Respublika hududida turli yosh toifalarida futbol va futzal sport turi bo'yicha sportchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularni saralab olish, O'zbekiston milliy terma jamoalari tarkibini shakllantirish,

shuningdek futbol va futzal sport turi bo'yicha kuchli sportchilarni aniqlash, trener va hakamlarning malakasini oshirish, o'tkaziladigan musobaqalar natijalarini tahlil qilish orqali kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

3-bob. Musobaqalarni tashkil etish va ularga rahbarlik qilish

3.1. Musobaqalarni o'tkazishga umumiy rahbarlik O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan hamda bevosita rahbarlik qilish O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi (bundan buyon matnda assotsiatsiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

3.2. Musobaqalarni adolatli va shaffof holda o'tkazilishi O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tayinlagan hakamlar hay'ati zimmmasiga yuklatiladi.

3.3. Musobaqalarni tashkillashtirish, tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bevosita O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

4-bob. Musobaqani o'tkazish joyi va muddati

4.1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining 2023-yil uchun Respublika kalendar rejasiga muvofiq sportning futbol va futzal turi bo'yicha musobaqalar ro'yxati mazkur Nizomning **1-ilovasiga** muvofiq, musobaqalar dasturi **2-ilovaga** muvofiq hamda musobaqa talabnomasi **3-ilovaga** muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Mandat kommisiyasining ish vaqti, sanasi hamda joyi musobaqa dasturi **2-ilovada** ko'rsatib o'tiladi.

5-bob. Musobaqada ishtirok etish shartlari

5.1. Musobaqalarda Qopaqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlap saralash bosqichi g'olib va sovrindor hamda iqtidorli sportchilardan tashkil topgan viloyat terma jamoalarini ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

5.2. Musobaqalarda ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablari, olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab internatlari, olimpiya va paralimpiya zahiralari kollejlari, hududiy bolalar-o'smirlar futbol akademiyalari, ixtisoslashtirilgan olimpiya zahiralari maktab internatlari, professional futbol klublari qoshidagi bolalar-o'smirlar futbol maktabi, bolalar-o'smirlar sport maktablari, hususiy futbol maktablarida muntazam shug'ullanadigan futbolchilar musobaqalarda ishtirok etishlari mumkin.

5.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri terma jamoalari musobaqasida O'FA huzuridagi hududiy bolalar va o'smirlar futbol akademiyasidan 4 nafar shug'ullanuvchilarga musobaqada ishtirok etishlariga ruhsat beriladi.

5.4. Musobaqalarda Super liga, Proliga, Birinchi liga, Ikkinchi liga (xavaskorlar ligasi), professional klublarning U-21, U-18, U-16, U-14 jamoalarida ro'yhatda turuvchi futbolchilar ishtirok etishlari mumkin.

5.5. Musobaqalarda faqatgina belgilangan yosh toifasidagi futbolchilar ishtirok etishlariga ruxsat beriladi. Belgilangan yosh toifasidan 1 yosh kichik bo'lgan futbolchilarni, jamoa tarkibiga jalb qilishga faqatgina 2010-yillar uchun ruxsat beriladi. Qolgan yosh toifasiga ruxsat berilmaydi.

6-bob. Musobaqani o'tkazish shartlari

6.1. Musobaqada mezbonlik qiladigan hududlar hududiy yoshlar siyosati va sport boshqarmasi hamda hududiy futbol assotsiatsiyasi birinchi vitse-prezidenti va musobaqa uchun ma'sul xodimlar musobaqalar mobaynida quyidagi vazifalarni bajarishlari shart:

- uchrashuv bo'lib o'tadigan maydonlarni tayyorlash;
- o'yinlardan oldin matbuot anjumani o'tkazish uchun joy tayyorlash;
- 2 nafar video operator bilan ta'minlash;
- o'yinlarni youtube platformasida jonli translyatsiya qilish (live);
- o'yingohlarni 6x1 xajmdagi 6 dona bannerlar bilan bezatish;
- yuqori malakali hakamlar bilan ta'minlash;
- tez tibbiy yordam brigadasi, hafsizlik hodimlarini musobaqa o'yinlari vaqtida jalb qilish;
- musobaqa jarayonida karantin qoidalariga rioya qilish;
- musobaqani OAV orqali keng yoritilishini ta'minlash;
- muosobaqa g'olib va sovrindorlari uchun esdalik sovg'alari bilan ta'minlash;

7-bob. Jamoalarni ro'yxatdan o'tkazish

7.1. Musobaqada qatnashish uchun ro'yxatdan o'tish chog'ida jamoalar rahbarlari O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi Bolalar, o'smirlar va ommaviy futbolni rivojlantirish bo'limi tomonidan joriy qilingan elektron platformaga quyidagi hujjatlarni Respublika musobaqalari boshlanishidan bir oy **(30 kun)** oldin joylashtirishlari shart:

- **futbolchining shaxsiy fuqarolik pasporti nus'hasi;**
- **futbolchining oxirgi 1 yil muddatda tushgan rangli fotosur'ati;**
- **futbolchining sport o'qish muassasasiga qabul qilish buyrug'i nus'hasi;**
- umumiy talabnoma (talabnoma hududiy yoshlar siyosati va sport boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan hamda hududiy assotsiatsiyalar bilan kelishilgan bo'lishi va unda tibbiyot muassasasining shifokori tomonidan sportchining musobaqada ishtirok etishiga ruxsat berilishi) imzo va muhr bilan tasdiqlangan holda bo'lishi lozim.
- O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan taqdim qilingan platformada ko'rsatib o'tilgan litsenziyani futbolchilar ma'lumotlarini bexato, aniq to'ldirish;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri terma jamoalari musobaqasida jamoalarni ro'yxatdan o'tkazish vaqtida viloyatlik futbolchilar Toshkent shahrida vaqtinchalik ro'yxatdan o'tib Toshkent shahar birinchiligida ishtirok etayotgan bo'lsa, u holda ushbu futbolchilarni viloyat terma jamoasi ixtiyoriga borishi va viloyat terma jamoasiga o'ynashi uchun hududiy futbol assotsiatsiya birinchi vitse-prezidentlari O'zbekiston futbol assotsiatsiyasiga hamda Toshkent shahar futbol assotsiatsiyasiga musobaqa boshlanishidan 20 kun oldin hat orqali rasmiy murojat qilgan holda futbolchilar ro'yxatini yosh toifasi bo'yicha ilova qilishlari shart.
- Agar ro'yxatdan o'tkazish vaqtida hududiy futbol assotsiatsiya hodimlari Toshkent shahrida shug'ullanayotgan futbolchini viloyatiga o'ynashi haqida

O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasiga hamda Toshkent shahar futbol assotsiatsiyasiga rasmiy ravishda murojat qilmagan va futbolchilar ro‘yxatini ilova qilmagan bo‘lsa, u holda futbolchi Toshkent shahar terma jamoasi tarkibida musobaqalarda ishtirok etishiga ruhsat beriladi.

• Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri terma jamoalari musobaqasida birinchi navbatda shaxsini tasdiqlovchi xujjatga qaraladi.

• SM va IBO‘SM hamda FBDIMI o’rtasidagi, BO’FM o’rtasidagi va Olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari o’rtasidagi musobaqalarga oxirgi bir yil davomida shug’ullangan futbolchilarga musobaqada ishtirok etishiga ruxsat beriladi. Bir yildan kam shug’ullangan futbolchilar musobaqalarga qo’yilmaydi. (Direktor imzosi bilan tasdiqlangan buyruq mandat komissiyasiga taqdim etiladi).

7.2. Har bir jamoaga 18 nafar futbolchi 2 nafar murabbiy 1 nafar jamoa rahbari va 1 nafar shifokorni talabnomaga kiritilishiga ruxsat beriladi.

7.3. Hududiy bolalar-o‘smirlar futbol akademiyalari o‘rtasidagi musobaqalarda 22 nafar futbolchi 2 nafar murabbiy 1 nafar jamoa rahbari 1 nafar shifokorni talabnomaga kiritilishiga ruxsat beriladi.

7.4. Jamoaning umumiy talabnomasida barcha futbolchilarning fotosurati bo‘lishi shart.

7.5. 16 yoshga to‘lmagan futbolchilarning kinder pasporti, ID_CARD (identifikatsion karta) yoki xorijga chiqish pasporti bo‘lishi shart.

7.6. Kinder pasporti ID_CARD (identifikatsion karta) yoki xorijga chiqish pasporti bo‘lmagan futbolchilar musobaqaga qo‘yilmaydi.

7.7. Musobaqada faqatgina O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan futbolchilarning qatnashishlariga ruxsat beriladi.

7.8. Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlarni tekshirish va qabul qilish jarayonida mandat komissiyasi tomonidan kamchiliklar aniqlansa va ushbu kamchiliklar (24 soat) ichida bartaraf etilmasa kamchilik aniqlangan futbolchi yoki jamoaga musobaqada ishtirok etishga ruhsat berilmaydi.

7.9. O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan tasdiqlangan litsenziya bilan musobaqaga qo‘yiladi.

7.10. Litsenziyasi yo‘q futbolchilar musobaqaga qo‘yilmaydi.

8-bob. Musobaqa o‘tkazish shartlari

8.1. O‘yinlar FIFAning futbol va futzal qoidalari asosida o‘tkaziladi.

8.2. O‘yin qaydnomasida sportning futbol turi bo‘yicha O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzuridagi hududiy bolalar-o‘smirlar futbol akademiyalari o‘rtasidagi musobaqalarda 22 nafar futbolchi, boshqa barcha Respublika musobaqalarida 18 nafar futbolchi, sportning futzal turi bo‘yicha 14 nafar futbolchi, 2 nafar murabbiy, 1 nafar shifokor qayd etiladi.

8.3. O‘yin vaqtida zahira o‘rindig‘ida sportning futbol turi bo‘yicha 7 nafar, sportning futzal turi bo‘yicha 9 nafar futbolchi va 2 nafar murabbiy, 1 nafar shifokor bo‘lishiga ruhsat beriladi.

8.4. Hududiy futbol assotsiatsiyalari final bosqich musobaqalari boshlanishiga qadar dastlabki bosqich musobaqalarining o‘tkazilganligi xaqidagi hisobot varaqasini O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasining **“Bolalar, o‘smirlar, ommaviy**

futbolni rivojlantirish va musobaqalar o'tkazish bo'limi" ga taqdim etishlari shart.

8.5. Hududiy futbol assotsiatsiyalari dastlabki bosqich musobaqalarining o'tkazilganligi xaqidagi hisobotni taqdim etmasa, u holda hisobot topshirmagan hudud Respublika final bosqichiga qo'yilmaydi.

8.6. Jamoalar musobaqaga musobaqa boshlanishidan bir kun oldin soat 17:00 ga qadar yetib kelishlari shart. Mandatda va qur'a tashlash marosimida jamoa vakillari ishtirok etmasa u xolda jamoalar musobaqaga qo'yilmaydi.

8.7. Musobaqalarning final bosqich o'yinlari aralash tizimda o'tkaziladi.

8.8. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan belgilangan Respublika musobaqalari bo'lib o'tadigan hududda qur'a tashlash marosimi o'tkaziladi va jamoalar 4 ta guruhlarga bo'linadi, guruh baxslarida jamoalar aylanma tizimda baxs olib boradilar;

8.9. 1/4 Chorak final uchrashuvlari oldidan musobaqaning keyingi bosqich o'yinlari uchun qura tashlanadi va uchrashuv juftliklari aniqlanadi.

8.10. O'z guruhlarida 1 va 2 o'rinni egallagan jamoalar pley-offga (1/4 chorak finalga) yo'l oladi va uchrashuvlar olimpiya tizimida o'tkaziladi;

8.11. Qura tashlash jarayonida bir guruxdan chorak finalga yo'l olgan jamoalar, chorak finalda o'zaro raqib bo'lishmaydi. Xar bir guruxdan keyingi bosqichga chiqgan 1 o'rinlar o'zaro, 2 o'rinlar xam o'zaro uchrashmaydi;

8.12. ½ Yarim finalda mag'lub bo'lgan jamoalar esa 3-o'rin uchun baxs olib boradilar.

8.13. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soniga qarab musobaqa o'tkazish tizimiga musobaqa tashkilotchilari tomonidan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

8.14. O'yinlarning davomiyligi va maydonning o'lchamlari quyidagicha:

Sportning futbol turi uchun:

- (2011-yil) 12 yosh – 50 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 25 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 60 m. x 90 m (4-xajmdagi to'p) darvoza o'lchami 2 m x 5 m.
- (2010-yil) 13 yosh – 50 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 25 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 60 m. x 90 m (4-xajmdagi to'p) darvoza o'lchami 2 m x 5 m.
- (2009-yil) 14 yosh – 60 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 30 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 60 m. x 90 m (5-xajmdagi to'p)
- (2008-yil) 15 yosh – 60 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 30 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 68 m. x 105 m (5-xajmdagi to'p)
- (2007-yil) 16 yosh – 70 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 35 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 68 m. x 105 m (5-xajmdagi to'p)
- (2006-yil) 17 yosh – 80 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 40 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 68 m. x 105 m (5-xajmdagi to'p)

Sporning futzal turi uchun:

- (2010-yil) 13 yosh – 30 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 15 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 18 m. x 36 m

- (2009-yil) 14 yosh – 30 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 15 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 18 m. x 36 m
- (2008-yil) 15 yosh – 40 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 20 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 20 m. x 40 m
- (2007-yil) 16 yosh – 40 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 20 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 20 m. x 40 m
- (2006-yil) 17 yosh – 40 daqiqa (ikki bo'lim, har bir bo'lim 20 daqiqa iborat bo'ladi). Maydonning o'lchami – kamida 20 m. x 40 m

O'yindagi xar xil to'xtalishlar o'yin vaqtiga ta'sir qilmaydi. Belgilangan taym va daqiqa to'liq (to'xtatilishlarsiz) o'ynaladi.

8.15. Bo'limlar orasidagi (1 bo'lim tugaganligi haqidagi hushtakdan 2 bo'lim boshlanganligi haqidagi hushtakgacha) tanaffus 10 daqiqa.

8.16. Jamoalarning 2 xil rangdagi o'yin libosi bo'lishi shart.

8.17. "Mehmonlar" libos rangini tanlash huquqiga ega. Har bir futbolchi o'z libosida raqamga ega bo'lishi shart. Libosida raqami yo'q futbolchining maydonga tushishi ta'qiqlanadi.

8.18. Sababsiz uchrashuvga kelmagan jamoaga -:+ hisobida texnik mag'lubiyat yoziladi. Raqib jamoaga esa + : - hisobida texnik g'alaba beriladi. Mazkur +:- texnik g'alaba yoki mag'lubiyat jamoalarning to'plar nisbatiga ta'sir o'tkazmaydi.

8.19. Agarda ikkala jamoa sababsiz uchrashuvga o'z vaqtida yetib kelmasa, unda ikkala jamoaga ham texnik mag'lubiyat yoziladi.

8.20. Uchrashuvga sababsiz kamida 30 daqiqa kech qolgan jamoaga texnik mag'lubiyat yoziladi. Raqib jamoaga esa texnik g'alaba beriladi.

8.21. Uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortgan hamda o'yin yakunlanmasdan maydonni tark etgan yoki chetlatilgan futbolchi (bir necha futbolchini) maydondan chiqishni istamagan jamoaga texnik mag'lubiyat yoziladi. Raqib jamoaga esa texnik g'alaba yoziladi.

8.22. Diskvalifikatsiya qilingan yoki uchrashuv qaydnomasida qayd qilinmagan futbolchi uchrashuvda ishtirok etsa, bu jamoaga texnik mag'lubiyat yoziladi va jamoa musobaqadan chetlatiladi. Raqib jamoaga esa texnik g'alaba beriladi.

8.23. Belgilangan yoshdan katta yoshdagi futbolchi maydonga tushsa, jamoaning oldin o'tkazgan barcha uchrashuvlariga texnik mag'lubiyat yoziladi va jamoa musobaqadan chetlatiladi. Jamoaning keyingi raqiblariga esa texnik g'alaba beriladi.

8.24. SM va IBO'SM hamda FBDIMI o'rtasidagi, BO'FM o'rtasidagi va Olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari o'rtasidagi musobaqalarda Talabnomaga kirgazilgan futbolchilar agarda murabbiy musobaqadan oldin o'z futbolchisini boshqa klubga shug'ullanib turishi uchun va usha klubning viloyat (shaxar) chempionatida sharafini ximoya qiladigan ammo futbolchi pasporti yoki direktor buyrug'ini usha klubga bermagan taqdirda, musobaqa davomida shunday holatlar aniqlansa musobaqadan chetlatiladi va barcha uchrashuvlari bekor qilinadi.

8.25. Jamoa murabbiyi musobaqa Nizomning 8-bob **8.22-8.23.-8.24** bandlarini buzgan taqdirda uning kelgusidagi faoliyati O'FA tartib-intizom qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tegishli choralar ko'riladi.

8.26. Jamoa murabbiylari uchrashuv boshlanishidan 1 soat oldin musobaqa bosh hakami va uchrashuvning bosh hakamiga kerakli barcha xujjatlarni taqdim etishlari shart.

8.27. Maydonga chiqish oldidan uchrashuv bosh hakami belgilangan tartib asosida futbolchilarning xujjatlarini tekshirishi kerak.

8.28. Futbolchining libosi belgilangan talabga javob bermasa uchrashuvda ishtirok etishiga ruhsat berilmaydi. Agarda butun jamoaning liboslari talabga javob bermasa jamoaga texnik mag'lubiyat yoziladi.

8.29. Barcha ishtirokchilarda shitkilar, getralar, sport poyafzallari, sport liboslari bo'lishi shart. Futbolchilar uchrashuv qaydnomasida qayd etilgan raqamlar asosida maydonda harakat qilishlari shart.

8.30. Uchrashuv qaydnomalari elektron shaklda yuritiladi. Uchrashuv yakunlangandan so'ng bosh murabbiylar uchrashuv qaydnomasini ko'rib chiqib so'ngra imzolab ketishlari shart.

9-bob. G'olibni aniqlash

9.1. Jamg'arilgan ochkolarga ko'ra guruhlardagi musobaqa g'oliblari quyidagicha aniqlanadi:

- G'alaba – 3 ochko;
- Durrang – 1 ochko;
- Mag'lubiyat – 0 ochko;

9.2. Agarda ikkita yoki undan ko'proq jamoalarning to'plagan ochkolari bir xil bo'lsa, unda guruh g'olibi quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- O'zaro uchrashuvlarga qarab;
- Kiritilgan va o'tkazib yuborilgan to'plarning nisbatiga qarab;
- Eng ko'p urilgan gollar nisbatiga qarab;
- Eng kam olingan ogohlantirishlarga qarab: (shkala: chetlatish - 3 ochko, ogohlantirish – 1 ochko);

9.3. Yuqorida qayd qilingan ko'rsatkichlar ham bir xil bo'lsa, unda jamoalarning egallagan o'rinlari qur'a tashlash orqali aniqlanadi. (Qur'ani bosh hakamlar hay'ati o'tkazadi).

9.4. Pley – off o'yinlarida uchrashuvning asosiy vaqtida durang natija qayd etilsa, o'yinning asosiy vaqti yakunlangach, jamoalar sportning futbol turi bo'yicha 11 metrlik, sportning futzal turi bo'yicha 6 metrlik nuqtadan 5 marotabadan zarba amalga oshirishadi. Agar 5 marotabadan amalga oshirishda g'olib aniqlanmasa jamoalar zarba berishni birinchi noaniq zarbaga qadar amalga oshirishadi.

10-bob. Futbolchilar va jamoa rahbarlarining javobgarligi

10.1. Musobaqa ishtirokchilari ushbu "NIZOM" ga qat'iy rioya qilishlari shart, shuningdek, ular raqib jamoa, musobaqa tashkilotchilari va muxlislarni hurmat qilishlari kerak.

10.2. Jamoalarning rasmiy rahbarlari hakamlar hamda hakamlar xay'atining ishiga mutlaqo aralashmasliklari va hakamlar xonasiga kirmasliklari lozim va o'z

jamoasi a'zolarining yurish – turishlariga, futbolchilarning xulqiga javobgar shaxs hisoblanishadi.

10.3. Jamoalar rahbarlari uchrashuv davomida va bo'sh vaqtda shogirdlarining intizomlarini ta'minlashlari shart. Shuningdek, jamoa a'zolari tomonidan yashash, ovqatlanish va o'yingohdagi bino-inshootlarga va qimmatbaho boyliklarga yetkazilgan moddiy zarar uchun jamoa rasmiylari to'liq javobgardir.

10.4. Maydondan chetlashtirilgan futbolchi zahira o'rindig'ida o'tirishi man qilinadi. Chetlatilgan futbolchi yechinish xonasiga yo'l olib, shundan keyin tribunadan uchrashuvni kuzatishi mumkin.

10.5. Guruh bosqichining 1 va 2-turlarida ogohlantirilgan (sariq kartochka) futbolchi guruhdagi 3-tur uchrashuvini o'tkazib yuboradi.

10.6. Guruh bosqichining 2 va 3-turlarida ogohlantirilgan (sariq kartochka) futbolchining jamoasi plef-off bosqichiga yo'l olsa unda futbolchi maydonga tusha olmaydi.

10.7. Guruh bosqichining 1 va 3-turlarida ogohlantirilgan (sariq kartochka) futbolchining jamoasi pley-off bosqichiga yo'l olsa unda futbolchi maydonga tusha olmaydi.

10.8. Guruh baxslarida maydondan chetlatilgan futbolchi (qizil kartochka) agar futbolchining jamoasi pley-off bosqichiga yo'l olsa u xolda futbolchi maydonga tusha olmaydi.

10.9. Maydondan chetlatilgan futbolchi keyingi o'yinni o'tkazib yuborishi bilan birga, uning kelgusi uchrashuvlardagi ishtiroki hakamlar qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

10.10. Jamoalarning murabbiylari uchrashuv davomida maxsus texnik hududdan chiqmasdan, o'yinni kuzatishlari shart.

10.11. Maydondondan chetlatilgan murabbiy o'yinning qolgan qismini tribunadan kuzatib boradi va uning kelgusi uchrashuvlardagi ishtiroki hakamlar qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

11-bob. Hakamlik

11.1. O'yinlar FIFAning futbol va futzal qoidalari asosida boshqariladi.

11.2. Musobaqaga bosh hakamni va hakamlarni tayinlash O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi, jamoalarning uchrashuvlarga tayinlangan hakamlarni almashtirish to'g'risidagi iltimoslari inobatga olinmaydi.

11.3. Uchrashuv bosh hakami o'yin boshlangunga qadar maydonga chiqadigan jamoalar liboslarini rangini aniqlashlari kerak.

11.4. Uchrashuv bosh hakami va hakamlar o'yin boshlangunga qadar maydon ahvolini, to'plarning va darvozalarning sifatini tekshirib, besh balli baho asosida uchrashuv qaydnomasiga yozib qo'yishlari kerak.

11.5. Uchrashuv bosh hakami va jamoalarning bosh murabbiylari o'yin boshlangunga qadar uchrashuv qaydnomasini to'ldirishlari kerak. Qaydnomaga faqat bosh murabbiylar imzo chekishadi. O'yin davomida ogohlantirish va jarohat olgan, maydondan chetlatilgan futbolchilarni hamda maydonda aniqlangan kamchiliklar to'g'risida bosh hakam uchrashuv qaydnomasiga yozib qo'yishi kerak.

11.6. Uchrashuv bosh hakami uchrashuvdan oldin jamoalar rahbarlari bilan birgalikda o'yin qaydnomasiga kiritilgan futbolchilarning hujjatlarini ko'zdan

kechirmog'i darkor va futbolchilarning maydonga o'z vaqtida chiqishlariga javobgardir.

11.7. Uchrashuv bosh hakami maydonda bo'lib o'tgan noxushliklarni, ogohlantirishlarni, maydondan chetlatishlarni ataylab yoki unutib uchrashuv qaydnomasiga kiritmasa, bu qoidabuzarlik hisoblanadi va bu holat O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi hakamlar qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

11.8. Musobaqaning Bosh kotibi zimmasiga musobaqa bayonnomalarini yuritish, musobaqa davomida kelib tushgan e'tirozlarni hakamlar hay'ati bilan birgalikda o'rganib chiqish, o'yin qaydnomasiga asosan barcha natijalarni tahlil qilish,sariq va qizil kartochkalar sarhisobini yuritish, musobaqa to'purari hamda musobaqaning chiziqlar bo'yicha eng yaxshi o'yinchilarini belgilab borish vazifasi yuklatiladi.

12-bob. E'tiroz bildirish tartibi

12.1. E'tiroz berayotgan murabbiy yoziladigan e'tiroz to'g'risida raqib jamoa va bosh hakamni avvaldan ogohlantirishi lozim va bu haqda uchrashuv bosh hakami uchrashuv qaydnomasiga yozib qo'yishi lozim.

12.2. Bosh murabbiy imzosi bilan tasdiqlangan e'tiroz uchrashuv yakunlangandan keyin 2 soat davomida musobaqa hakamlar xay'atiga yuborilishi lozim. Belgilangan vaqtdan o'tib yuborilgan e'tiroz qabul qilinmaydi.

12.3. E'tiroz yozgan tomon, u yerda yozilgan barcha fakt va raqamlarni isbotlab berishi kerak.

12.4. E'tiroz quydagi xolatlarda ko'rib chiqilmaydi:

- hakamlar tomonidan sportning futbol turi bo'yicha 11 metrlik, sportning futzal turi bo'yicha 6 metrlik jarima to'pi belgilanganligi yoki belgilanmaganligi;
- darvoza to'g'ri yoki noto'g'ri ishg'ol qilinganligi;
- uchrashuvda ortiqcha vaqt o'ynalganda.

12.5. E'tiroz quydagi xolatlarda ko'rib chiqiladi:

- uchrashuv qaydnomasiga kiritilmagan futbolchi maydonga tushganida;
- oldingi uchrashuvda maydondan chetlatilgan futbolchi maydonga tushirilganida;
- yoshi katta futbolchi maydonga tushganida;

13-bob. Musobaqani moliyalashtirish manbalari

13.1. Musobaqada ishtirok etuvchi sportchilar, trenerlarning ovqatlanishi, yotoqxona va yo'l xarajatlari safarga yuboruvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi;

- musobaqada ishtirok etuvchi hakamlarning xarajatlari vazirlik tomonidan, ayrim hollarda assotsiatsiya (uyushma)lar va homiylar tomonidan;
- musobaqada xizmat qiluvchi xodimlarning xarajatlari assotsiatsiya tomonidan amalga oshiriladi.

13.2. Musobaqani mintaqaviy bosqichini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq:

- uchrashuv bo'lib o'tadigan joyni va o'yingohni tayyorlash;
- kamida 5 dona 6x1 hajmdagi banerlar bilan bezatish;

• uchrashuvlarni video tasvirga tushirish bilan bog'liq sarf-xarajatlar musobaqani qabul qiluvchi hududiy futbol assotsiatsiyasi hamda hududiy yoshlar siyosati va sport boshqarmasi tomonidan moliyalashtiriladi.

13.3. Musobaqani moliyalashtirilishi yuzasidan ushbu Nizomning moliyalashtirish shartlariga vazirlik tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

13.4. Musobaqalarda xizmat ko'rsatuvchi:

• hakamlarning mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq sarf-xarajatlar O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

14-bob. Taqdirlash

14.1. Musobaqa g'olib va sovrindorlarini taqdirlash O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

14.2. Musobaqalarning g'olib jamoalari assotsiatsiya tomonidan kubok bilan taqdirlanadi.

14.3. Musobaqaning g'olib va sovrindorlari vazirlik tomonidan tasdiqlangan I, II, va III-darajali tegishli diplomlar hamda assotsiatsiya tomonidan medallar bilan taqdirlanadi.

15-bob. Yakuniy natijalar tahlili

15.1. Assotsiatsiyasi o'tkazilgan musobaqalar to'g'risida vazirlik tomonidan tasdiqlangan hisobot shakli bo'yicha vazirlikka musobaqa tugagandan so'ng **3 kun muddat ichida musobaqaning yakuniy natijalari yuzasidan texnik hisobotlarni taqdim etadi.**

O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, Bolalar, o'smirlar va ommaviy futbolni rivojlantirish bo'limi boshlig'i

M.Saidkasimov

Sportning futbol va futzal turi bo'yicha
O'zbekiston chempionati, O'zbekiston kubogi
musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi Nizomiga
1-ILOVA

Sportning futbol, futzal turi bo'yicha musobaqalar RO'YXATI

Futzal SM va IBO'SM hamda FBDIMI 2010-09-08-07-06-yillarda tug'ilganlar o'rtasida "O'zbekiston chempionati"			
1	SM va IBO'SM hamda FBDIMI tarbiyalanuvchilari o'rtasida O'zbekiston chempionati final bosqichi	Mart-aprel	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda
"Kelajak sari" Halqaro musobaqa 2005-06 yillarda tug'ilganlar o'rtasida			
2	Hududiy bolalar-o'smirlar futbol akademiyalari, professional futbol klublari qoshidagi bolalar-o'smirlar futbol maktabi, hususiy futbol maktablarida	aprel	Toshkent
Olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari o'rtasida 2007-2008 yillarda tug'ilganlar o'rtasida "O'zbekiston chempionati"			
3	Olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari tarbiyalanuvchilari o'rtasida final bosqichi	aprel	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda
Futbol SM va IBO'SM hamda FBDIMI 2010-09-08-07-06-yillarda tug'ilganlar o'rtasida "O'zbekiston chempionati"			
4	SM va IBO'SM hamda FBDIMI tarbiyalanuvchilari o'rtasida O'zbekiston chempionati final bosqichi	May-iyun	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda
Professional futbol klub tasarrufidagi Bolalar-o'smirlar futbol maktablarining 2011-10-09-08-07-06-yillarda tug'ilganlar o'rtasida O'zbekiston chempionati			
5	Professional futbol klub tasarrufidagi Bolalar-o'smirlar futbol maktablarining final bosqichi	avgust	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda
"Professional futbol maktablari ligasi" 2011-10-09-08-07-06-yillarda tug'ilganlar o'rtasida O'zbekiston chempionati			
6	Hududiy bolalar-o'smirlar futbol akademiyalari, final bosqichi	Iyun-avgust sentabr-oktabr	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda
Viloyat terma jamoalari 2010-09-08-07-06-yillarda tug'ilganlar o'rtasida O'zbekiston chempionati			
7	Viloyat terma jamoalari o'rtasida O'zbekiston chempionati final bosqichi	oktabr-noyabr	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda
"Professional futbol maktablari ligasi" 2012-11-10-09-08-07-06-yillarda tug'ilganlar o'rtasida O'zbekiston kubogi			
8	Hududiy bolalar-o'smirlar futbol akademiyalari, final bosqichi	noyabr	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda
"O'FA birinchiligi" 2010-09-08-07-06-05-yillarda tug'ilganlar o'rtasida			
9	Hududiy bolalar-o'smirlar futbol akademiyalari, professional futbol klublari qoshidagi bolalar-o'smirlar futbol maktabi, hususiy futbol maktablarida final bosqichi	noyabr-dekabr	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda
Futzal SM va IBO'SM hamda FBDIMI 2010-09-08-07-06-yillarda tug'ilganlar o'rtasida "O'zbekiston kubogi"			
10	SM va IBO'SM hamda FBDIMI tarbiyalanuvchilari o'rtasida O'zbekiston chempionati final bosqichi	dekabr	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyoasti va sport vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi belilagan hududda

Sportning futbol va futzal turi bo'yicha
O'zbekiston chempionati, O'zbekiston kubogi
musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi Nizomiga
2-ILOVA

Sportning futbol va futzal turi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar
DASTURI

Vaqti	Musobaqa sanasi
09:00 - 16:00	Musobaqadan bir kun oldin hududlardan keladigan jamoalarni kutib olish va joylashtirish
13:00 - 14:00	Jamoalar uchun tushlik
16:00 - 18:00	Mandat komissiyasi faoliyati
18:00 - 19:00	Qur'a tashlash
Guruh o'yinlari 3 kun davomida bo'lib o'tadi	
9:00	O'yin
11:00	Musobaqaning ochilish marosimi
11:30	O'yin
13:00	O'yin
14:30	O'yin
16:00	O'yin
17:30	O'yin
1/4 chorak final	
9:00	O'yin
11:00	O'yin
13:00	O'yin
15:00	O'yin
1/2 yarim final	
10:00	O'yin
12:00	O'yin
3-o'rin	
10:00	3-o'rin uchn
Final	
10:00	1-2 o'rin uchun
12:00	Musobaqa yopilish marosimi

Sportning futbol va futzal turi bo'yicha
O'zbekiston chempionati, O'zbekiston kubogi
musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi nizomiga
3-ILOVA

NAMUNA!

"TASDIQLAYMAN"
Viloyat (Shahar) futbol assotsiatsiyasi birinchi vitse-prezidenti

_____ F.I.Sh.
"___" _____ 2023-yil

"TASDIQLAYMAN"
_____viloyati yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi boshlig'i

_____ F.I.Sh.
"___" _____ 2023-yil

Viloyat (shaxar) _____ Futbol (Futzal) bo'yicha 2011-2010-2009-2008-2007-2006 yillarda tug'ilganlar o'rtasida O'zbekiston chempionatiga va (O'zbekiston kubogiga) 2023-y futbolchilarni ro'yxatga qo'yish

T A L A B N O M A S I

T/p	Familiyasi va ismi	Tug'ilgan sanasi	Pasport ma'lumoti	Yashash joyi	O'qish joyi	Fukoroligi, millati.	Shifokor ruxsati
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
9							
10							
11							
12							
13							
14							
15							
16							
17							
18							
Jamoa rahbari, shifokor va murabbiylar							
1							
2							
3							
4							

Bosh kotib
Tel: +998/97-000-00-00
_____ Imzo _____ (F I Sh)

Bosh trener
Tel: +998/97-000-00-00
_____ Imzo _____ (F I Sh)

Shifokor
Tel: +998/97-000-00
_____ Imzo _____ (F I Sh)